



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

11/2024



E-ISSN 2181-1466

9 721811 446004



ISSN 2181-6875

9 772181 687004



@buxdu_uz



@buxdu1



@buxdu1



www.buxdu.uz

11/2024

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal
2024, № 11, noyabr

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha, **tarix** fanlari bo'yicha 2023-yil 29-avgustdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Rasulov To'liq Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul kotib: Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)

Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

Mo'minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor

Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoirra Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bekova Nazora Jo'rayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Hamroyeva Shahlo Mirjonovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Nigmatova Lola Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori

Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor

Xolliyev Askar Ergashovich, biologiya fanlari doktori, professor

Artikova Hafiza To'ymurodovna, biologiya fanlari doktori, professor

Hayitov Shavkat Ahmadovich, filologiya fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Ixtiyarova Gulnora Akmalovna, kimyo fanlari doktori, professor

Rasulov Zubaydullo Izomovich, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, texnika fanlari doktori, professor

Samiyev Kamoliddin A'zamovich, texnika fanlari doktori, dotsent

Esanov Husniddin Qurbonovich, biologiya fanlari doktori, dotsent

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, professor

Jumayev Jura, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Klichev Qybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori, dotsent

G'aybulayeva Nafisa Izattullayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS		
TILSHUNOSLIK *** LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ		
Сафин Д.Ш.	Лингвокультурологические реалии в немецкой лексикографической картине мира	3
Abatov D.R.	Badiiy matnda mifoantroponimlarning lingvopoetik xususiyati	8
Ibragimova N.A.	Axborot texnologiyalari sohasiga oid autentik matnlarda individual-mualliflik belgilari	12
Jumayev E.B., Allamova S.A.	Nemis va o'zbek mikromatnlarida o'zlashtirma buyruq ifodasi	17
Nadirxanova N.A.	Lisoniy vositalarni tanlashda nutqiy vaziyatning o'rni	24
Nasrullayeva G.S.	Badiiy matnlarda antropomorfik metaforalarning ifodalanishi	29
Qosimova N.F., Nosirova L.R.	Badiiy tarjima jarayonida leksik-semantik o'zgarishlar	33
Toliyeva Sh.I.	O'zbek tilida haqorat tushunchasi va uning lingvistik ekspertiza jarayonidagi o'rni	37
Xolmuxamedov B.F.	Qur'oni Karimning mobil ilovalari xususida	41
Хайдаров А.А., Барноева М.А.	Партонимия в узбекском языке: лексико-семантический анализ	45
Шермухамедова Н.А.	Моделирование морфологического анализа на основе окончания слова для узбекского языка	52
Khamdamova S.B.	The role of irish folk poetry in the process of forming national identity in Seamus Heaney's poetry	57
Hojiyeva N.H.	O'zbek poetik matnlarida meva nomlarining ramz sifatida qo'llanishi	62
Jumayev E.B., Badalov F.N.	Nemis mikromatnlarida yaxlitlik tushunchasi	66
Davlatova M.H.	Funksional-semantik maydonning aspektual va temporal mazmuni	73
Mavlanova O.Sh.	Ingliz va o'zbek tillarida simpatiya va empatiyaning lingvistik ifodalanishi	76

NEMIS MIKROMATNLARIDA YAXLITLIK TUSHUNCHASI

Jumayev Erkin Boltayevich,

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Badalov Feruz Nuriddinovich,

Buxoro davlat universiteti 2-bosqich magistranti

jumaev.erkin@inbox.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada matnga xos yaxlitlik nemis badiiy asarlaridan olingan mikromatnlar misolida yoritiladi. Matn lingvistikasi taraqqiy etishi bilan gap jumla qatoriga yana bitta a'zo – matn qo'shildi. Endi borliqqa munosabat yoki borliq bilan aloqa eng avvalo matnga xos deb qarala boshlanadi. Demak, matn eng yirik sintaktik birlik hisoblanadi. U har doim jumla tarzida namoyon bo'lib tugallangan fikr ifodalaydi. Gap bu xususiyatga matn tarkibida yoki bitta o'zi matn hosil qilganda ega bo'ladi. Matn tarkibiga kiruvchi gap undan tashqarida olib qaralganda borliqqa munosabat ifodalay oladigan birlik bo'lib qoladi.

ПОНЯТИЕ ЦЕЛОСТНОСТИ В НЕМЕЦКИХ МИКРОТЕКСТАХ

Аннотация. В данной статье текстовая целостность подчеркивается на примере микротекстов из немецких произведений искусства. С развитием лингвистики текста к строке предложений добавился еще один член— текст. Теперь отношение к бытию или отношения с бытием рассматриваются прежде всего как текстуальные. Следовательно, текст является крупнейшей синтаксической единицей. Оно всегда выступает в виде предложения и выражает законченную мысль. Предложение обладает этим свойством, когда оно является частью текста или когда оно само по себе образует текст. Предложение, включенное в текст, остается единицей, способной выражать отношение к существованию, будучи взято за его пределы.

Кали со'zlar: matn, mikromatn, makromatn, gipertema, mazmuniy yaxlitlik, kommunikativ yaxlitlik, struktur yaxlitlik, mazmuniy yadro, tema-rematik zanir, referent, sabab-oqibat munosabati, butun-qism munosabati, relyatsion strukturasi, predikatsiya, potensial birlik, virtual birlik, imlikatsiya.

Ключевые слова: текст, микротекст, макротекст, гипертема, содержательная целостность, коммуникативная целостность, структурная целостность, содержательное ядро, тема-рема-тематическая структура, референт, причинная связь, связь целого-части, реляционная структура, предикация, потенциальное единство, виртуальное единство, импликация

THE CONCEPT OF INTEGRITY IN GERMAN MICROTTEXTS

Abstract. This article emphasizes textual integrity using the example of microtexts from German works of art. With the development of text linguistics, another member was added to the sentence string - text. Now the relation to being or the relationship with being is considered primarily as textual. Therefore, the text is the largest syntactic unit. It always appears in the form of a sentence and expresses a complete thought. A sentence has this property when it is part of a text or when it itself forms a text. A sentence included in a text remains a unit capable of expressing an attitude towards existence, being taken beyond its limits.

Keywords: text, microtext, macrotext, hypertheme, content integrity, communicative integrity, structural integrity, content core, theme-rhematic structure, referent, causal connection, whole-part connection, relational structure, predication, potential unity, virtual unity, implication.

Matnning mazmuniy yaxlitligi undagi mazmuniy asos ya'ni temaning bittaligida o'z ifodasini topadi. Mikromatn temasi deganda biz uning mazmuniy yadrosi ya'ni butun matnga xos umumlashgan mazmunni tushunamiz deb yozadi E. Agrikola., V. Dreslarning fikriga ko'ra mikromatn temasi aksincha uning tarkibidagi gaplar temasining arifmetik yig'indisidan hosil bo'ladi. O. Moskalskaya birinchi nuqtai nazar tarafdori bo'lganidan quidagi mikromatn temasi bitta, u birinchi gapda ifodalangan; ikkinchi gap alohida xabar emas, u birinchi gapdagi temaning mazmunini oydinlashtiradi ya'ni Marselning yelkasidagi og'riq sababini bildiradi deb hisoblaydi: (1) *Marsel erwachte mit entsetzlichen Schmerzen in der Schulter.* (2) *Bürger Busot hatte ihn auf die falsche Seite gelegt (Bredel).*

Gap mikromatn tarkibiga kirmay bitta o'zi xabar bildirsa, ya'ni gap-jumladan iborat bo'lsa alohida temaga ega bo'ladi. Mikromatn tarkibiga kirsam yuqorida aytilganidek mikromatnning umumiy yaxlitligini ifodalashda ishtirok etadi.


Mikromatnning mazmuniy asosi ko'pincha temaga doir ochiq so'zlarning takrorlanib kelishida o'z ifodasini topadi. Bu degani mikromatnda referent (borliqdagi mavjudot) bitta bo'lib ayni atoqli, turdosh ot yo ularning lug'aviy ma'nodoshi yoki ular o'rnida qo'llanuvchi olmosh orqali ifoda etiladi. Bunday holda referent vazifasida ayni bir shaxs, hayvon yoki narsa keladi.

Mikromatnning mazmuniy yaxlitligini hosil qilishda implikasiya ham ishtirok etadi. Bunda mikromatn tarkibidagi gaplarning mazmunan aloqasi, borliqdagi vaziyat yoki butun-qism munosabatiga bog'liq bo'ladi. Bunday aloqa natijasida ochqich so'z bilan birga yana boshqa mavjudot yoki vaziyat taqozo etiladi.

Ochqich so'z qo'llanmaganda mazmuni asos (tema) ning yaxlitligi mikromatn qismlarining umumiy mazmunidan hosil bo'ladi: *Silberne Wasser brausten, süße Waldvögel zwitscherten, die Herdenglöckchen läuteten, die mannigfaltig grünen Bäume wurden von der Sonne goldig ausgestrahlt (Heine)*. Ushbu mikromatn temasini yozgi quyoshli kun deb atasa bo'ladi. Bunga uning tarkibidagi tabiat tasviri aks etgan gaplarning mazmunini umumlashtirish imkon beradi.


Matnning kommunikativ yaxlitligi undagi tarkibiy qismlarning uzviyligi ya'ni ketma-ket zanjirsimon aloqasidan iborat. Mikromatn tarkibidagi har bir keyingi gap nutqiy (kommunikativ) jihatdan o'zidan oldingi gapga tayanib axborotni davom ettiradi. Natijada tema-rematik zanjir hosil bo'lib uning nihoyasi mikromatn chegarasini bildiradi. Shunday qilib tema-rematik zanjir matn hosil qilish vazifasini bajaradi. Bu vazifa bir gapli matnga ham birdan ortiq gapli matnga ham xos. Ayni paytda mazkur vazifaning gap sintaksisi emas, matn sintaksisiga xosligi alohida ta'kidlanadi.

Mikromatn hosil qiluvchi zanjirsimon aloqa bir necha andoza (qolip, model) ga ega. Bu andozalar nemis tili materiali asosida F.Danesh tomonidan, rus tili materiali asosida G.Ya.Solganik tomonidan tasvirlangan. Ko'pincha mikromatn tarkibidagi oldingi gap remasi keyingi gapda temaga aylanadi. Uning chizmasi shunday:




G.Ya.Solganik bu qolipni kesim orqali bog'lanish, aloqa deb ataydi.

Tema-rematik zanjirning ikkinchi qolipida tayanch xabar (tema) takrorlanadi, yangi xabar (rema) har qaysi gapda alohida bo'ladi. Buning chizmasi shunday:




Bu qolipni G.Ya.Solganik sub'yekt vositasida aloqa, bog'lanish deb nomlaydi.

Bir necha qahramon tasvirlangan syujetli matnda ushbu qolip murakkablashgan tarzda voqelanadi. Bunday matnning temasi ikkita bo'lib ikki qator hosil qiladi. Ikkinchi qatorda ham birinchi qatordagidek harqaysi gapning remasi alohida bo'ladi:




Bu qolipga quyidagi mikromatn misol bo'ladi: *Wir haben Flugblätter verteilt; da wurde er angeschlossen; wir haben ihn heimgeschleppt; er ist im geheimen gestorben, damit kein Verdacht auf jemand fällt (Seghers).*

Uchunchi qolip shundan iboratki, mikromatnda bitta mushtarak asos (gipertema) va unga bog'liq bir necha xususiy tema bo'lib har qaysisining reasi alohida bo'ladi:



F.Danesh qo'llagan xususiy tema O.Moskalskaya bayon qilgan implikasiya tushunchasiga juda yaqin. Mushtarak asos (gipertema) gapdan yirik birlikning boshlanishida kelishi mumkin. Bunday holda temarematik zanjir quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi:



Bitta mikromatnda mazkur qoliplar dan faqat bittasi emas, ikkitasi yoki uchalasi birgalikda ifodalanishi mumkin. Bunday holda mikromatda gap soni ko'p bo'lib uning chizmasi ham, bayoni ham murakkab tus oladi.

Matning tuzilishi jihatidan yaxlitligi ko'p va xo'b o'rganilgan. Tuzilish jihatidan yaxlitlik matn mazmuniy va kommunikativ yaxlitligining ifoda vositasi hisoblanadi. Bunday vositalar kishilik, ko'rsatish va egalik olmoshi, olmosh-ravish, zamon shakli, son, ma'nodosh, ma'nosi yaqin ochqich so'zlar, lug'aviy takror, payt va o'rin ravishi, bog'lovchi va hokazolar kiradi. Bu vositalar o'zi qo'llangan gapning oldingi yoki keyingi gap(lar) bilan bog'liqligini ko'rsatish uchun xizmat qilib matn hosil bo'lishiga ishtirok etadi. Masalan: „Der Schwan und ihr Boot glitten lautlos aneinander vorüber.“ gapi alohida olib qaralsa, aniq artikl (der) va egalik olmoshi (ihr) qo'llanganligining sababi aniq bo'lmay qoladi. Gap esa tuzilishi jihatdan yaxlit, tugal bo'lmaydi. Negaki tarkibidagi mazkur vositalar (aniq artikl va egalik olmoshi)da oldinga ishora mavjud. Binobarin oldingi gaplarga murojaat qilishga to'g'ri keladi. Shundagina faqat tuzilishi jihatidan emas, mazmunan va kommunikativ jihatidan ham tugallik hosil bo'ladi: „Im Kanal lag ein Boot; sie mieteten es und schwammen dahin. Ein Schwan kam ihnen entgegen. Der Schwan und ihr Boot glitten lautlos aneinander vorüber (H.Mann).“

Bürer Buzot hatte ihn auf falsche Seite gelegt gapida esa faqat kishilik olmoshi (ihn) emas, zamon shakli (Plusquamperfekt)da ham keyin sodir bo'lgan qandaydir voqeaga aloqadorlik bor. Shu bois oldingi gap qo'llansa olmoshning ma'nosi ham Plusquamperfektga aloqador ish-harakat ham oydinlashadi: *Marcel erwachte mit entsetzlichen Schmerzen in der Schulter. Bürger Buzot hatte ihn auf falsche Seite gelegt (W.Bredel).* Ko'rindiki, kishilik olmoshi (ihn) birinchi gapdagi atoqli ot (Marcel) o'rnida qo'llangan, Plusquamperfekt dan keyin sodir bo'lgan voqea ham aniq (Imperfekt da ifodalangan). Demak, o'zaro tuzilish jihatidan va mazmunan bog'langan ikki gap birgalikda mikromatn hosil qilmoqda.

Ayrim matn tarkibida maxsus lug'aviy va grammatik vosita qo'llanmaydi. Gipertemali matnlarda shunday bo'ladi. Bunday mikromatn tarkibidagi gaplar bir xil andoza asosida tuziladi, gap bo'laklarining o'rni ham mos keladi. Ayrim mikromatnda gaplar o'zaro mantiqan bog'langan bo'ladi. Bunday aloqaning bir necha turi borligi H.Isenberg tomonidan ko'rsatilgan: *Die Lampe brennt nicht. Die Sicherung ist durchgebrannt.* Ushbu mikromatn tarkibidagi gaplar o'zaro sabab-oqibat munosabati bilan bog'langan bo'lsa, quyidagi mikromatnda gaplar orasida butun-qism munosabati mavjud: *Gestern ist ein Unglück geschehen. Peter hat sich den Arm gebrochen.*

Mikromatn hajmi har xil bo'lganligidan tadqiqotlarda ushbu masalaga ham e'tibor beriladi. Bir guruh tadqiqotchi (L.G.Fridman va b.)lar abzatsni eng yirik sintaktik birlik hisoblashadi. Boshqalar bu fikrni inkor etadi. Jumladan L.M.Losevaning fikricha abzats sintaktik kategoriya bo'la olmaydi. Matn tarkibi esa so'z birikmasi va gaplardan iborat bo'ladi. Bundan tashqari bitta abzats bir necha mikromatndan tarkib topishi, yoki aksincha bo'lishi mumkin. Darhaqiqat, abzatsning hajmi muallifning uslubi yoki matnning qaysi uslubga mansubligiga qarab bir-ikki gapdan ham, bir necha sahifadan ham iborat bo'ladi.

Mikromatn hajmi, chegarasi ayri tadqiqotchi (Heildolph K.E. kabi)lar tomonidan uning kommunikativ yaxlitligiga asoslanib belgilanishini aytishgan. Ayrim olim (Harweg R.va b.)lar esa matnning tuzilish jihatidan

yaxlitligiga asoslanadi deb aytishgan. Bunday holda har bir mikromatndagi birinchi gapda odatda asar qahramoni (shaxs) atoliq ot bilan ifoda etiladi. Keyingi gaplarda esa olmosh ishlatiladi.

Ma'lumki, sintaktik semantika dastlab til va nutqning yaxlit birligi sifatida qaralgan gapning grammatik ma'nosi tarzida rivojlangan. Bu sohada O.I.Moskalskaya, N.D.Arutyunova, N.Yu.Shvedova, Ye.V.Paduchova, F.Danesh kabi olimlarning tadqiqodlari diqqatga sazovor. Jumladan F.Danesh sintaksis semantikasiga nisbatan uch bosqichli (tomonlama) yondashuvni boshlab bergan. Keyingi yillarda esa eng yirik sintaktik birlik deb matn, ya'ni eng avvalo gapdan yirik butunlik qaraladigan bo'lganidan so'ng, uning predmeti yanada kengaydi.

Sintaktik semantikaning vazifasi gap yoki matn hosil bo'lishida asos bo'luvchi, hamda borliq haqida inson tafakkuri tarzini aks ettiruvchi mazmuniy strukturalarni aniqlashdan iborat. Bu esa faqat gap asosida emas, mikromatn asosida ham tafakkurning muayyan mantiqiy shakli yotadi degan g'oya uzviy bog'liq.

Matnning mazmuniy tuzilishini aniqlashda kommunikatsiya nazariyasi qo'l keladi. Matnning xususiy ko'rinishi bo'lgan mustaqil gap-jumlaga nisbatan ham bunday tahlildan foydalanilsa bo'ladi.

Matnning kommunikativ tahlilida W.Schmidt, W.Harweg, M.Pfütze, H.Isenberg kabi tadqiqotchilar kommunikativ maqsad yoki kommunikativ vazifa atamasidan foydalanadi. An'anaviy sintaksisda kommunikativ maqsadning gapga nisbatan belgilangan uch asosiy turi, ya'ni: xabar, buyruq, so'roqni matnga ham nisbat bersa bo'lishini aytishgan.

Mikromatn mazmunining ikkinchi eng muhim uzvi, uning *relyatsion strukturalari*, ya'ni tarkibiy qismlari orasidagi mazmuniy munosabat tizimidir. Mantiqiy aloqa bilan mikromatndagi mazmuniy munosabat masalasi ko'p jihatdan grammatikaning gaplar orasidagi sintaktik aloqa haqidagi an'anaviy ta'limotida o'z ifodasini topgan. Bu masala ayniqsa qo'shma gaplarda qo'llanadigan bog'lovchi va bog'lovchi vazifasidagi so'zlarni tasniflashda chuqur o'rganilgan bo'lib, maktab grammatikasiga kiritilgan. Bog'lovchilarning grammatik nasnifi ma'lum darajada mantiqda murakkab jumalalarda belgilanadigan asosiy munosabat turlariga tayanadi. Ammo mantiqiy bog'lovchilarning bir ma'noligi va tildagi bog'lovchilarning ko'p ma'noligi tadqiq-tahlilda bir qadar qiyinchilik tug'diradi. Jumladan, mantiq va tildagi *und* (va) bog'lovchisining asosiy ma'nosi, ya'ni biriktirish vazifasi mos keladi. Shu bilan birga bu bog'lovchi qo'shma gap qismlarining denotativ ma'nosiga bog'liq holda sabab-natija(2), shart-natija (3), ziddlik (4) kabi ma'nolarni ham bildiradi:

- (1) *Die Herden zogen auf die Weiden, und es läuteten ihre Glöckchen.*
- (2) *Die Schneeflocken fielen stets reichlicher, und der ganze Boden war schon weiß. (und = so dass)*
- (3) *Sage mir, mit wem du umgehst, und ich weiß, wer du bist. (und = wenn..., so)*
- (4) *Das Denken beruht auf eigener Geisteskraft, und das Erlernte ist fremdes Geistesprodukt. (und = während)*

Murakkab jumla tarkibiy qismlari orasidagi mazmuniy munosabat (biriktiruv va hokazo) bog'lovchi qo'llanmaganda ham mavjud bo'ladi. Mazmuniy tahlilda bu inobatga olinmog'i dardkor.

- (1) *Die Herden zogen auf die Weiden, und es läuteten ihre Glöckchen.*
- (2) *Die Herden zogen auf die Weiden, ihre Glöckchen läuteten.*
- (3) *Die Herden zogen auf die Weiden. Ihre Glöckchen läuteten.*

Ergashgan qo'shma gapda ham qismlar orasidagi mazmuniy munosabat yuqoridagi tarzda voqelanadi. Bog'langan va ergashgan qo'shma gap bilan mikromatn qismlari orasidagi mazmuniy munosabat o'xshash bo'ladi. Ular faqat uslubiy va funksional-kommunikativ jihatdan farqlanadi. Bu farq ko'pincha qo'shma gapni mikromatnga va aksincha mikromatni qo'shma gapga aylantirishga monelik qilmaydi. Bunga F.Danesh keltirgan ilmiy uslubga oid misol yorqin dalil bo'la oladi:

- (1) *Wöhler erwärmte Amoniumzyanid. Er stellte fest, daß es dadurch in Harnstoff verwandelt wird. Dieser Stoff war bisher nur als Produkt von lebendigen Organismen bekannt.*
- (2) *Als Wöhler Amoniumzyanid erwärmte, stellte er fest, daß es dadurch in Harnstoff, bisher nur als Produkt von lebendigen Organismen bekannt, verwandelt wurde.*

Har qanday matn zamirida borliqdagi muayyan mavjudot, voqea-hodisa, u yoki bu fakt, vaziyat haqidagi hukm yotadi. Bu esa matndagi so'z va gaplar, shuningdek matnning o'zi ham yaxlit holda borliq bilan uzviy bog'langanligini ko'rsatadi. Binobarin borliq bilan munosabat har qanday matnning zarur belgisi hisoblanadi. Shuni ta'kidlash joizki, bu masala ham dastlab gap nazariyasi doirasida tadqiq qilingan. 1931 yilda Y.Ris gapni so'z birikmasidan farqlovchi asosiy belgi, unda ifodalanadigan voqelikka munosabatdir (das Verhältnis zur Wirklichkeit) deb yozgan. Gap ma'nosi uning tarkibidagi so'z, so'z birikmalari va ular orasidagi munosabatdan emas, o'lik so'zlarni jonli nutqqa aylantiradigan borliqqa munosabatdan iboratligini ta'kidlagan.

Rus tilshunosligida bu masalani birinchi bo'lib tadqiq qilgan olim akad. V.V.Vinogradovdir. Bu olimning fikriga ko'ra gapning asosiy belgisi predikativlikdir. Shunday qilib gapni shakllantiruvchi predikativlik kategoriyasining ma'no va vazifasi gap mazmunining borliqqa munosabatini ifodalashdir.

Predikativlik kategoriyasi tarkibiga shaxs, zamon va modallik kategoriyalari kiritiladi. Bu kategoriyalar birgalikda gapni Grammatik jihatdan shakllantiradi. Bu birlik so'zlovchining voqelikka munosabatini ko'rsatib nisbiy tugallangan fikr ifodalaydi. Binobarin nutqiy faoliyat gap va jumla tarzida amalga oshadi.

Matn lingvistikasi taraqqiy etishi bilan bu qatorga yana bitta a'zo qo'shiladi: *gap – jumla – matn*. Endi borliqqa munosabat yoki borliq bilan aloqa eng avvalo matnga xos deb qarala boshlanadi. Demak, matn eng yirik sintaktik birlik hisoblanadi. U har doim jumla tarzida namoyon bo'lib tugallangan fikr ifodalaydi. Gap bu xususiyatga matn tarkibida yoki bitta o'zi matn hosil qilganda ega bo'ladi. Matn tarkibiga kiruvchi gap undan tashqarida olib qalganda borliqqa munosabat ifodalay oladigan (potensial, virtual) birlik bo'lib qoladi. Ko'pincha morfologik vositalar bilan kesimda o'z ifodasini topadigan shaxs, zamon va modallik kategoriyalari gap orqali borliqqa munosabat ifodalanishiga imkon yaratadi. Bu imkoniyat esa gap matn tarkibiga kirganidagina joriylashadi, voqelanadi. Masalan, *Der Schwan und ihr Boot glitten lautlos aneinander vorüber* gapi kontekstdan tashqarida olib qalganda borliq haqida yetarli ma'lumot bera olmaydi, ya'ni mazmunan tugallangan fikr ifodalay olmaydi. Shunga ko'ra borliqqa munosabat gapning sintagmatik strukturasi (unda ega va kesimning mavjudligi), hamda shaxs, zamon va modallik morfologik yo'l bilan ifodalanligiga qaramay imkoniyatligicha qolaverdi. Bu faqat muayyan matnda ro'y beradi. Negaki matnda uning tarkibidagi gaplar bir-birini to'ldirib badiiy matnda borliqdagi yozuvchi nazarda tutgan muayyan voqea-hodisa haqida aniq ma'lumot beradi. Mazkur gap qo'llangan matnda muallif nazarda tutgan badiiy olamdagi muayyan vaziyatda ro'y bergan voqea bayon qilingan. Bu voqea roman qahramoni Ditrix mahbubasi Agnes bilan shahardan tashqariga qilgan sayr chog'ida sodir bo'ladi.

Predikativlik tarkibiga kiruvchi kategoriyalarga bu yerda yangicha mazmun qo'shiladi. Chunonchi matn tarkibidagi zamon shakli faqat nutq momentidan oldin ro'y berganlikni emas, voqea sayr chog'ida ketma-ket sodir bo'lganligini ham anglatadi. Modallik jihatdan gaplar sayr vaqtidagi voqeaning haqiqatdan ro'y berganligini bildiradi. *Sie* (ular) olmoshi esa umuman III shaxslarni emas, kitobxonga tanish bo'lgan roman qahramonlarini ko'rsatadi.

Matndagi oxirgi gap alohida olib qaralsa, borliq haqidagi xabar yetarli bo'lmaydi. Negaki uning tarkibidagi *der Schwan, das Boot, ihr* kabi so'zlar tinglovchi (kitobxon)ga aniq bo'lmaydi, ya'ni borliqdagi kim va nima nazarda tutilganligi ravshan bo'lmaydi. Buning boisi shuki, gapda tinglovchi (o'quvchi)da bunga imkon beradigan tagma'lumot mavjud emas. Busiz esa yangi ma'lumot berish ham, uni tushunishning ham imkoni bo'lmaydi. Ana shu so'zlovchi va tinglovchi uchun mushtarak ma'lumot (bilim) asosida tinglovchi (o'quvchi)ga xabar berilayotgan mavjudot aniq, ravshan bo'ladi. Bunga esa mikro- yoki makromatn imkon beradi. Mazkur mikromatnda *sie* (ular) deganda o'quvchi asar qahramonlari (Ditrix va Agnes)ni tushunadi. Ayni paytda qayiq va oqqush haqida yangi ma'lumot beriladi. Natijada mikromatnda tilga olingan mavjudotlar haqida aniq tasavvur, tushuncha, ma'lumot hosil bo'ladi. Bu hodisa tilshunoslikda *referensiya* deb ataladi. Referensiya deganda so'zning denotat, ya'ni borliqdagi mavjudotga munosabati nazarda tutiladi (denotat ma'nosida referent so'zi ham qo'llanadi). Referensiya bilan predikativlik gapning kommunikativ, ya'ni tema-reaga bo'linishi bilan uzviy bog'liq hodisa. Fikr aniq ifodalanishi, ma'lumot ravshan bo'lishi uchun ikkita qoidaga rioya qilish darkor: 1) referensiya, 2) predikasiya (nutq predmetiga yangi xabar qo'shilishi, ya'ni temaga rema qo'shilishi). Tildan fodalanishdan asosiy maqsadlardan biri borliqdagi mavjudot (shaxs, nabotot, hayvonot va hkz.) va voqea-hodisa haqida xabar, ma'lumot berishdan iborat. Buning uchun nutqimizda ikkita savolga javob bera olishimiz darkor: *Nima (kim) haqida gapirmoqchimiz?* va *u haqida nima demoqchimiz?* Birinchi savolga referensiya yordamida, ikkinchi savolga esa uning belgisini ifodalash bilan javob beriladi. Uning belgisi deganda mavjudotni tasvirlash, tasniflash va tasvirlash nazarda tutiladi. Ko'rinadiki, tilshunoslikda turli davrlarda o'zaro uzviy bog'langan predikativlik, gapning kommunikativ bo'linishi va referensiya haqida ta'limot yaratiladi.

Mantiqda referensiya nazariyasiga Frege (1892) va Russell (1905) tomonidan asos solingan. Frege so'zda ma'no (Sinn) va denotatsiya (Bedeutung)ni farqlaydi. Bu ikkalasi mantiqiy (logik) semantikaning tarkibiy qismi hisoblanadi. U ayni paytda bu hodisani gapga ham mos deb hisoblaydi. Otning referenti mavjudot (predmet) bo'lsa, gapning referenti voqea-hodisa, borliqdagi faktligini aytadi.

Tilshunoslikda referensiya hodisaga keying o'n yilliklarda e'tibor kuchaydi. G.B.Gak, I.P.Susov, Yu.K. Lekomsev kabi olimlarning fikriga ko'ra gapning asosini kognitiv, kommunikativ vazifa bilan birga nominative vazifa tashkil etadi. Bunday holda referensiya jumlaning voqelikka munosabati bilan ma'nodosh bo'ladi. Binobarin referensiya deganda gapning voqelikka munosabatini ifodalovchi ot referensiyasi ham, predikativlik kategoriyasi ham tushuniladi.

Endi matnning asosiy ifoda vositalari bo'lgan ot referensiyasi (va uning olmosh bilan almashinishi), matnning zamon va makon xususiyati (payt va o'rin holi vazifasi), hamda modallik talqiniga to'xtalamiz.

Ot referensiyasi ham dastlab gap doirasida o'rganilgan. K.Bost, K.G.Krushelnitskaya, O.I.Moskalskaya kabi olimlar gapning kommunikativ vazifasi, gapning kommunikativ bo'linishi bilan uzviy bog'liq deb

hisoblaydi. Nemis tilida ot referensiyasining asosiy vositasi artikldir. Bunda otning aniqlik-noaniqlik kategoriyasi nazarda tutiladi. Mazkur kategoriyani matn doirasida o'rganish esa uning tildagi mohiyati va vazifasini teranroq anglash imkonini beradi. Noaniq artikl tinglovchi (o'quvchi)ning diqqatini keying ma'lumot (xabar)ga qaratsa, aniq artikl aksincha oldingi ma'lumotga diqqatni tortadi. Boshqacha aytganda noaniq artikl yordamida so'zlovchi tinglovchi (adresat)ga u bilmaydigan mavjudot haqida xabar beradi, aniq artikl esa buning aksini ifoda etadi. V.Dresler ham artiklni matn doirasida olib qaraydi.

Son, miqdor bildiruvchi sifat va ayrim olmosh referensiyani yanada aniq ifoda etuvchi vosita hisoblanadi. Bular referensiyaning turlicha ko'rinishi, ya'ni: 1) otning barcha turi (*alle Menschen, sämtliche Tiere*); 2) har qanday turi (*jeder Mensch, ein beliebiger Mensch*); turning ayrim qismi (*einige, viele, manche Menschen*); 4) turning muayyan, aniq qismi (*diese, jene Menschen, folgende Tiere*); 5) turning noaniq a'zosi (*irgendein Mensch*); 6) hech qanday turi (*kein Mensch*) va hokazoni ifodalaydi.

Matn referenti noaniq artikl, son yoki noaniq olmosh yordamida ifoda etiladi. Matnning keying qismida u aniq artikl yoki ko'rsatish olmoshi bilan almashinadi.

Zamon kategoriyasi predikativlik kategoriyasi tarkibiga kirganidan gapning zarur belgisi hisoblanadi. Bu kategoriya ish-harakat vaqtining nutq momentiga munosabatini ifodalaydi. Bundan tashqari zamon ma'nosi payt holi bilan ham ifoda etiladi. Makon-o'rin ma'nosi faqat lug'aviy vosita bilan ifodalanib Grammatik kategoriya hosil qilmaydi. O.I.Moskalskaya unga hozirga qadar kam e'tibor berilganligining boisi shu deb hisoblaydi.

Morfologik vositalar orqali ifodalanadigan zamon ma'nosi bilan hol vazifasidagi lug'aviy vositalar bildirgan zamon ma'nosi o'rtasida farq bor. Matnda har doim borliqqa ikki xil munosabat mavjud bo'ladi. Avvalo har qanday matn-jumla va mikromatnda zamon shakli orqali tasvirlanadigan muayyan voqea-hodisa nutq momenti bilan bir vaqtda, undan oldin yoki keyin ro'y beradi. Ikkinchi jihatdan tasvirlanadigan voqea-hodisa obyektiv zamon va makon bilan bog'liq bo'ladi. Masalan *Mein Sohn wird am 1.Juni 19...achtzehn* deganda, Grammatik zamon nutq momentidan keyin sodir bo'lishini, obyektiv zamon tug'ilgan sanani, obyektiv makon esa (ko'rsatilgan) shaxs bilan bog'liq joyni bildiradi.

Bir nechta gapdan iborat matnda ham tasvirlanadigan voqea-hodisaning zamon va makoni ifodalanagan bo'ladi. Ular mikromatnda o'z ifodasini topmasa, nutq vaziyati va makromatndan aniq bo'ladi. Boshqacha aytganda matn (eng kichik, kichik va katta matn)da payt holi bo'lmasa, obyektiv zamon vazifasini muloqotning real vaqti bilan bog'liq nutq momenti bajaradi.

Matnda qo'llangan lug'aviy vosita avtosemantik bo'lsa aniq vaqt va makonni ko'rsatganidan o'zi obyektiv zamonni ifodalaydi: *Max Born wurde am 11.Dezember 1882 im damaligen Breslau als Sohn eines Professors für Anatomie geboren.*

Lug'aviy vosita semantic bo'lsa, ya'ni nisbiy ma'no anglatasa, zamon va makon ma'nosini mikro- yoki makromatnda muayyanlashgan tayanch nuqtaga asosan bildiradi: *Heute, gestern, morgen, da, dort oben, links, rechts* kabi so'zlar qo'llangan matnda tayanch nuqta vazifasini nutq momenti yoki so'zlovchining makoni bildiradi: *Ist heute in Hamburg Feiertag? Wird hier den nicht geheizt?*

Zamon kategoriyasi kabi modallik kategoriyasining ham Grammatik mohiyati, uning turlari, ifoda yo'llari funksional morfologiya va gap sintaksisida atroflicha o'rganilgan. Modallik gap doirasida olib qaralgan bo'lsa ham, hech qachon alohida gap bilan cheklanib qolmagan. Har doim kontekst va nutq vaziyati inobatga olingan. Ammo matn grammatikasida diqqat-e'tibor modallikning gapga xos bo'lmagan umumiy qonuniyatlarini aniqlashga qaratiladi. Bunda zamon kategoriyasidagidek nutq faoliyati turlari, nutqiy aloqa (muloqot)ning turli xil vaziyat, yozma nutqda esa har xil funksional uslub va badiiy asar janri inobatga olinishi kerak.

Shuni ta'kidlash joizki, janrlar orasida she'riyat his-tuyg'uning yuqori darajada zuhur bo'lishi bilan voqelikdan bir qadar uzoqlashadi. Og'zaki nutq kabi she'rlarda ham konyunktiv amalga oshmaydigan (noreal) xohish-iroda va xayoliy orzu-istaklarni ifoda etadi:

*Wenn ich ein Vöglein wär'
Und auch zwei Flüglein hätt',
Flög'ich zu dir.(Volkslied)*

Badiiy asarda muallif va qahramon nutqiga asosan reallik modalligi xos. Quyidagi matn muallif nutqi, o'zlashtirma nutq va asar qahramoni nutqi (ichki monolog)dan tarkib topgan. Unda asosan preterit indikativ qo'llangan. Prezens konyunktiv o'zlashtirma xabarni shakllantiradi, konditsionalis I esa noreal modallikni emas, o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gapda kelasi zamon ma'nosini anglatadi: *Sie drehte den Zopf in ein Knötchen. Sie sah nicht in den Spiegel. Sie glaubte, daß alles, was richtig gebügelt und gescheuert war, aus sich selbst in Ordnung sei. Das Zimmer war richtig, weil es vollkommen aufgeräumt war. Ein wenig Brennholz steckte schon in dem gußeisernen Öfchen. Das würde Erwin selbst anzünden, wenn er kam, und die Brikkets darauf legen. Sie breitete die Kattundecke über das Bett, das sie sonst mit Luise teilte. (Seghers)*

Xulosa. Muxtasar qilib aytganda modalikka matn nuqtai nazaridan yondashuv matn modalligini yaxlit olib qarashni va uning modal ochqichi (kalit)ni aniqlashni taqozo etadi. Aksar matnga bir xil modallik (reallik) xos. Ammo ayrim (asosan badiiy) matnda birdan ortiq ochqich bo'ladi. Bunday holda butun matn va uning qismlariga xos modallikni ko'ra bilish darkor.

Monologik va dialogik matn orasidagi grammatik tafovut ularni faqat uslubiyatda emas, matn grammatikasida ham o'rganish imkonini beradi. Gapdan yirik butunlik ayniqsa dialogik nutq (savol-javob)da o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Ixcham dialogda mazmuniy yaxlitlik savol-javob uchun temaning umumiyligi va so'roq gapning ham, darak gapning ham sintematik xususiyatga egaligidan iborat. Na so'roq gap, na darak gap alohida olinganda tugallangan xabar ifodalay olmaydi: -Willst du mitkommen? -Ja (Ja, gerne; Ja, selbstverständlich). Katta hajmdagi dialoglarda ham mazkur xususiyat o'zgarmaydi.

Dialogik matnning intonatsion yaxlitligi monologik matnga nisbatan yaqqolroq namoyon bo'ladigan uning tadqiqini ham to'kisroq desa bo'ladi.

ADABIYOTLAR:

1. Dressler W. *Einführung in die Textlinguistik*. – Tübingen, 1972. – S. 289
2. Boast K. *Der deutsche Satz. Die Satzverflechtung. Deutschunterricht, 1949, Heft 3.* – S. 7 – 15
3. Jumayev E.B. "O'zbek adabiy tilida o'zlashtirilmalik va matn" *Monografiya – "Durdona"* nashriyoti, Buxoro-2024
4. Zikrillayev G'. *Ruh va til.* – Toshkent: Fan, 2018. – 464 b
5. Гулыга Е.В., Натанзон М.Д. *Грамматика немецкого языка. Москва, "Учпедгиз", 1957.*
6. Москальская О.И. *Грамматика текста.* – Москва: Высшая школа, 1981. – 183 с.
7. Саидов С., Зикриллаев Ф. *Немис тили грамматикаси.* Тошкент, "Ўқитувчи", 1973
8. Brinkmann H. *Die deutsche Sprache. Gestalt und Leistung. 2.Auflage. Düsseldorf, 1971.* – 455 s.
9. Danes F. *Zur linguistischen Analyse der Textstruktur. Folia linguistica, 4, 1970.* – S. 72–78.
10. Diyk T.A. Van. *Some Aspekts of Text Grammars. The Hague-Paris, 1972.* – 155 p.